

**TILSHUNOSLIKDA SO'Z YASALISHI BILAN BOG'LIQ
MUAMMOLARNING O'RGANILISHI***Abdulaxatova Xurshida**Farg'ona davlat universiteti magistranti**Alimova Z**Filologiya fanlar doktori, PhD, tilshunoslik kafedrasi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada tilshunoslik sohasida so'z yasalishi hodisasi, uning kelib chiqish sabablari va muammolari imkon qadar yoritishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: yangi leksik birlik, ma'noni farqlash, ma'noning o'zgarishi, so'z yasalishi, til leksikasi.

Hozirgi vaqtda tilshunoslik sohasida so'z yasalishi hodisasi tilshunoslikdagi dolzarb muammolardan biri bo'lib kelgan va haligacha o'z murakkabligini yo'qotmagan bahsli munozara bo'lib kelmoqda. So'z yasalishi tilda mavjud bo'lgan imkoniyat va materiallar asosida yangi leksik birliklarni hosil qilishdir.¹

Til leksikasi lug'aviy ma'nolarning o'zgarishi, so'z yasalishi va yangi so'zlar hosil qilinishi omillari hisobiga muntazam boyib boradi. Biri boshqasi bilan o'zaro munosabatda bo'lgan bu omillar ayni o'rinda til taraqqiyotini belgilashga xizmat qiladi. Ularning o'zaro munosabatdoshligi shundan iboratki, tilda yangi paydo bo'lgan so'zlar so'z o'zlashtirish bilan bog'liq bo'lsa ham, so'z o'zlashtirish lug'aviy birliklar ma'nosini farqlash (differentsiatsiya qilish)da muhim rol o'ynaydi. Lug'aviy birliklarning mazmuni paydo bo'layotgan yangi so'z (yoki tushuncha)ning ma'nosiga zid bo'lmagan holatlarda ma'nolar o'zgarishiga ehtiyoj (imkoniyat) vujudga keladi.

Bizga tarixdan ma'lumki, so'z yasalishi oddiy, soddadek tuyulsada, lekin uning ob'ekt va sub'ekt tahlil mohiyati nihoyatda serqirra bo'lgani sabab, tilshunoslikdan tashqari barcha sohada ham eng murakkab hodisa hisoblanadi. Sababi undagi muayyan qonuniyatlar bevosita til faktlari tahlili orqali o'z isbotini topishi kerak. Shu sabablarga ko'ra so'z yasalish hodisasini olimlar ba'zan morfologiyaga kiritishsa, ba'zan leksikologiya sohasiga tegishli deb kelishadi. Juda ko'p ilmiy asarlarda so'z yasalishi grammatikaning tarkibida berilgan bo'lsa, boshqa bir adabiyotlarda esa leksikologiyaning bir qismi sifatida tatbiq etiladi. So'z yasalishi hodisasini leksikologiya bo'limiga kiritgan olimlar A.I.Smurnitskiy, I.V.Arnold, T.I.Arbekova kabilarning ishlarini yuqoridagi fikrlarning isboti sifatida aytib o'tish joizdir. Ingliz tilida so'z yasalishi mavzusi H.Marchand, L.Bauer, A.Xatcher, A.I.Smurnitskiy, Z.A.Xaritonchik, O.D.Meshkov, A.N.Ilina kabi qator tilshunoslar tomonidan tadqiq etilgan.

¹ Yulduz Xayrullayeva Oybek Axmedov: "Ingliz va o'zbek tillarida so'z yasalishidagi o'xshashlik va farqlari". "Science and Education" Scientific Journal / ISSN 2181-0842. February 2022 / Volume 3 Issue 2

Marchand o'zining "The categories and types of present day English wordformation" kitobida ingliz tilida so'z yasalihi tizimining qoliplari, namunalari haqida aytib o'tgan. U so'z yasalihi tog'risida quyidagi fikrni bildiradi: "So'z yasalihi tilshunoslikning shunday bir bo'limiki, unda tildagi yangi leksik birliklar, ya'ni so'zlar hosil qiluvchi qoliplar o'rganiladi.

Bugungi kunda o'zbek tilshunosligida ham so'z yasalihi mavzusi keng qamrovda o'rganilgan. So'z yasalihi, so'z yasalihi usullari masalasi o'zbek tilshunosligida A.Hojiyev, A.G'ulomov, Sh.Rahmatullayev, A.Nurmonov, R.Sayfullayeva, B.Mengliyev, A.Mamatov, D.Abduraxmonov, A.Rafiev, D.Shodmonqulova, Sh.Mirzaqulovlar² tomonidan tadqiq etilgan. So'z yasalihi mavzusini o'tish yuzasidan o'quv qo'llanma va darsliklarda metodik tavsiyalar keltirilgan. So'z yasalihi" termini tilshunoslikda ikki ma'noda qo'llanadi:³

1. Tilda yangi so'zni hosil qilish jarayoni;
2. Tilshunoslikning so'z yasalihi sistemasini o'rganuvchi bo'lim.

So'z yasalihi tilda mavjud bo'lgan so'z yasalihi tarkibini va so'z yasalihi usullarini o'rganadi. Bularni o'rganish hozirgi o'zbek adabiy tilidagi so'z yasalihi me'yorini belgilash, uning qonuniyatlarini to'g'ri tushunish imkoniyatini beradi. So'z yasalihi bo'limi tilshunoslikning morfemika bo'limi bilan chambarchas bog'langan. So'zning ma'noli qismlari o'zak va affiksial morfemalar tilda yangi so'z hosil qilishning muhim elementlari sanaladi. O'zbek tilshunosligida so'z yasalihi birinchilardan bo'lib o'z hissasini qo'shgan olim A. G'ulomovning 50-yillardagi maqolasidagi quyidagi fikrni keltirib o'tsak: "So'z yasalihini biz hozirgacha morfologik planda qarab kelmoqdamiz, holbuki, so'z yasalihi qanday bo'lmasin, biror bir usulda yangi so'z yasalihi kerakdir. Demak, u leksika-so'z bahsiga qarashlidir." "Eski grammatik ta'limotga ko'ra, so'z yasalihi va so'z o'zgarishi morfologiyada qaraladi. Haqiqatdan esa bular formal jihatdan o'xshash, funksional jihatdan esa boshqa-boshqa hodisadir".

² Abduraxmonov X., Rafiev A., Shodmonqulova D. O'zbek tilining amaliy grammatikasi.–Toshkent: O'qituvchi, 1992. Abjalova M.A. O'zbek tilidagi matnlarni kompyuter vositasida tahrir qilish dasturining lingvistik ta'mini// Magistr ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya// Toshkent-2011. Bushuy T., Safarov Sh. Til qurilishi: tahlil metodlari va metodologiyasi. – Toshkent: Fan, 2007. – B. 165-173. Mengliyev B., Sayfullayeva R., Mamatov A. va boshq. Milliy tilshunoslik mustaqil rivojlanish yo'lida // Ma'rifat, 2007 yil 21 may. Mengliyev B., Sayfullayeva R., Mahmudova N., Suvonova X. Ona tili ta'limining dolzarb muammolari // Til va adabiyot ta'limi, 2008 yil, -№ 9. Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. – Toshkent: O'zME, 2013. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G. va b. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Darslik. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2010. Zamonaviy o'zbek tili. Morfologiya. Darslik.– Toshkent: Mumtoz so'z, 2008. Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili I-II qism. T., 2004. Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o'zbek tili.T.2006. 6. Shoabdurahmonov Sh., B.M.Bahriddinova Hozirgi o'zbek tili (grammatika) Amaliy mashg'ulotlar uchun qo'llanma.

³ Yulduz Xayrullayeva Oybek Axmedov: "Ingliz va o'zbek tillarida so'z yasalihidagi o'xshashlik va farqlari". "Science and Education" Scientific Journal / ISSN 2181-0842. February 2022 / Volume 3 Issue 2

Adabiyotlar

1. Yulduz Xayrullayeva Oybek Axmedov: “Ingliz va o‘zbek tillarida so‘z yasalishidagi o‘xshashlik va farqlari”. "Science and Education" Scientific Journal / ISSN 2181-0842. February 2022 / Volume 3 Issue 2
2. Abduraxmonov X., Rafiev A., Shodmonqulova D. O‘zbek tilining amaliy grammatikasi.–Toshkent: O‘qituvchi, 1992.
3. Abjalova M.A. O‘zbek tilidagi matnlarni kompyuter vositasida tahrir qilish dasturining lingvistik ta‘mini// Magistr ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya// Toshkent-2011.
4. Bushuy T., Safarov Sh. Til qurilishi: tahlil metodlari va metodologiyasi. – Toshkent: Fan, 2007. – B. 165-173.
5. Mengliev B., Sayfullaeva R., Mamatov A. va boshq. Milliy tilshunoslik mustaqil rivojlanish yo‘lida // Ma‘rifat, 2007 yil 21 may.
6. Mengliev B., Sayfullaeva R., Mahmudova N., Suvonova X. Ona tili ta‘limining dolzarb muammolari // Til va adabiyot ta‘limi, 2008 yil, -№ 9.
7. Jamolxonov H. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik. – Toshkent: O‘zME, 2013.
8. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G. va b. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Darslik. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2010. Zamonaviy o‘zbek tili. Morfologiya. Darslik.– Toshkent: Mumtoz so‘z, 2008.
9. Jamolxonov H. Hozirgi o‘zbek adabiy tili I-II qism. T., 2004. Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o‘zbek tili.T.2006.
10. Shoabdurahmonov Sh., B.M.Bahriddinova Hozirgi o‘zbek tili (grammatika) Amaliy mashg‘ulotlar uchun qo‘llanma.
11. Yulduz Xayrullayeva Oybek Axmedov: “Ingliz va o‘zbek tillarida so‘z yasalishidagi o‘xshashlik va farqlari”. "Science and Education" Scientific Journal / ISSN 2181-0842. February 2022 / Volume 3 Issue 2